

IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MOLIYA BOZORINING O'RNI VA AHAMIYATI

Shoymardonov Behruz

TDIU, MMT-76 guruhan talabasi

Ilmiy rahbar: dots. Umirov Abdusalom

Annotatsiya: ushbu maqolada bugungi kunda moliya bozorining o'rni va ahamiyati, moliya bozorlarining turlari va xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliya bozori, qimmatli qog'ozlar bozori, pul, iqtisodiyot, moliyaviy resurslar, kredit, pul oqimlari.

O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamli islohatlar mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat qurishga qaratilgan bo'lib, ulaming asosiy mahsullaridan biri tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan milliy moliya bozori hisoblanadi. Milliy moliya bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyatini oshirish muammosi iqtisodiyotni modenizasiyalash, barqaror industrial va iqtisodiy o'sishni ta'minlash, inflyatsiyani pasaytirish maqsadida investitsiyalami jalg qilish zarurligidan kelib chiqadi. Ushbu muammoni samarali yechimi moliya bozorining raqobatbardoshliligi va xavfsizligi, barqarorligi va likvidliligi, investorlar uchun jalbdorliligi va risksizligi darajasini ta'minlash bilan uzviy bog'liq. Bunda turli tashqi va fundamental ichki omillar ta'sirini hisobga olish muhim hisoblanadi. Umuman olgan moliya bozori nima degan savolga quyidagicha javob berishimiz mumkin: Moliya bozori — oldi-sotdi obyekti pul yoki pulga tenglashtirilgan qog'oz bilan bog'liq bo'lgan bozor. Bu bozorda moliya mablag'larini vaqtincha haq to'lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan munosabatlar olib boriladi, shuningdek, pul mablag'larini jamg'arganlardan qarzga oluvchilarga o'tishi ta'minlanadi. Ortiqcha mablag'larga ega bo'lgan xo'jalik subyektlari o'z moliyaviy resurslarini mablag'larga muhtoj subyektlarga taklif qiladi. Moliya bozori banklarda, fond birjasida va auksionlarda o'tkaziladi.

Ma'lumki, moliya-kredit sohasi bozor iqtisodiyotidagi transaksiyalarga xizmat ko'rsatish, moliyaviy resurslar (jamg'armalar)ni jamlash, taqsimlash, boshqarish va qayta taqsimlash hamda ulami nazorat qilish funktsiyalarini bajaruvchi murakkab tizimdir. Bunda moliya bozori moliya-kredit sohasi (tizimi)ning alohida bo'g'ini bo'lib, u orqali moliyaviy resurslar moliyaviy vositalar (instrumentlar) yordamida talab va taklif asosida qayta taqsimlanadi. Shuning uchun moliya bozorini moliyaviy instrumentlar bo'yicha talab va taklif funktsiyasi deb atash mumkin. Unda iqtisodiyot sub'yektlari o'z maqsadlari va funktsiyalari ila moliyaviy instrumentlar yordamida

bozor munosabatlariga kiradilar¹. Moliyaviy bitimlar xarakteriga qarab, Moliyaviy bitimlarni turkumlashning bir necha usullari mavjud. Qaytarish tamoyili bo‘yicha moliya bozori 2 ga ajraladi: qarz majburiyatları (iste’molni ko‘ndiradigan pul) va kapital (mulk) bozori. Qarz majburiyatları bozorida pul vaqtincha qarz sifatida bozorga chiqadi va olingan pul shaxsiy iste’mol uchun ishlatiladi. Kapital (mulk) bozorida qo‘yilgan puldan daromad olish huquqi sotiladi va sotib olinadi. Bu bozorda mablag‘lar kapital sifatida ishga solinib, foyda keltiradi. Shuni hisobga olgan holda kapital bozorini 2 bo‘g‘inga ajratish mumkin: ssuda kapitali bozori va qimmatli qog‘ozlar bozori. Ssuda kapitali bozori — pul shaklidagi kapitalning foiz to‘lash sharti bilan qarzga berilishidir. Bu bozorda qisqa muddatli majburiyatlar muomalada bo‘ladi. Bular, asosan, davlat va banklarning majburiyatları hisoblanadi. Qimmatli qog‘ozlarning birlamchi va ikkilamchi bozorlarida aksiya, obligatsiya, veksel va boshqa oldi-sotdi qilinadi. Xo‘jalik hayotining baynalmilallashuvi natijasida jahon Moliya bitimlari paydo bo‘ldi. Mutaxassislar taqdim etgan tahlillar O‘zbekistonda moliya bozorining likvidligi talab darajasida emasligini ko‘rsatadi. Ikkilamchi bozorning mavjud holati va aholi boshqa qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilarining moliya bozoridagi faoliyatini susaytirmoqda. Iqtisodiyotning real sektori va moliya bozoridagi uzilishlar sababli korxonalarga investitsiya mablag‘larini jalg qilish uchun moliya bozorining zamonaviy vositalaridan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelinyapti. Uy xo‘jaliklarining moliya bozoriga kirib borishi orqali ularning korporativ qimmatli qog‘ozlar bozoridagi salmog‘ini oshirish masalasi yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, kreditlash, jamg‘arma-depozit, pul o‘tkazmalari, hisob-kassa amaliyoti, sug‘urtalash, inkassatsiya, moliyaviy kafolatlash va valyuta oldi-sotdisi kabi moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish yurtimizda lozim darajada, yoinki, xalqaro standartlar asosida yo‘lga qo‘yilmagan. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar tajribasida keng qo‘llaniladigan birja, lizing, reytinglash, qayta sug‘urtalash, brokerlik, mulkni baholash, moliyaviy maslahat berish, moliyaviy resurslarni ishonchli boshqarish kabi xizmatlarni ko‘rsatish kutilgan natijalarini bermayapti. Boshqa sohalardan farqli moliya bozori esa ushbu imkoniyatni beruvchi, uning uchun zaruriy shart-Sharoitlarni yaratuvchi muhit, alohida iqtisodiy-huquqiy mexanizm bilan ta‘minlangan, instituti (qatnashchilari) va ularning moliyaviy instrumentlar bilan bog‘liq munosabatlari majmuasi sifatida namoyon bo‘luvchi tizimdir. Aynan shu va yuqorida aytilganlar bilan moliya bozori boshqa turdag'i bozorlardan keskin farq qiladi O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tishi, ayniqsa, muomala sohasida tub o‘zgarishlar bilan birgalikda ro‘y berishi kuzatilmoqda. Bozor iqtisodiyotida muomala sohasining asosiylaridan biri birjalar hisoblanadi. Zamonaviy bozor tizimiga kiradigan birjalar jamiyatda mahsulot ishlab chiqarish aylanmasining tezlashuviga va kengaytirilgan ishlab chiqarish jarayonining

¹ Shoxa’zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar. /Darslik.-T.: «Fan va texnologiya», 2012.- 5 b.

uzluksizligiga xizmat qiladi. Birjalar tufayli tovarlarning muomalada bo‘lish vaqtining qsqarishi asosiy fondlar va mehnat vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirishi, bank kreditlari va aylanma vositalarga ehtiyojni kamaytiradi va shu tariqa boshqa tarmoqlarga yo’naltirilgan resurslar hajmini oshirishga imkon beradi. shu sababli birja tizimi orqali mablag’lar aylanish tezligini oshirish hozirgi kunda dolzarb sanalgan asosiy iqtisodiy vazifalardan biri sanaladi. Davlatimiz va iqtisodiyotimizning uzoq davomli kelajagini va manfaatlarini ko’zlab, strategik va ustuvor dasturlarni amalga oshirishda, boshimizdan kechirgan og’ir va keskin vaziyatlardan chiqishda, bugun ko‘pchilik qatorida moliyaviy iqtisodiy inqiroz ta’sirini bartaraf qilishda davlat boshqaruv tizimi va usullariga suyanish va ularning rolini kengaytirish va kuchaytirish o’zini to’la oqlab bergenini hayotimizning o’zi tasdiqlab berdi va bermoqda.

Bugungi kunda respublikamizda raqamlı iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida, tijorat banklarining yangi innovatsion elektron xizmatlariga talabi yanada ortgan. Aholi o’rtasida bank binosiga bormasdan, birgina telefon, kompyuter yoki boshqa informatsion texnologiyalar orkali ko‘plab amaliyotlarni bajarish imkoniyati ommalashgan. Shuningdek, tanlangan tashkilotning mobil ilovasi yoki rasmiy saytiga kirib, kerakli ma’lumotni olish, turli to‘lovlarni amalga oshirish, buyurtma berish va shikoyat yoki e’tirozlar yo’llash mumkin. Hozirda elektron bazaga jamlangan axborotlarning raqamlashtirilganligi natijasida avvallari ma’lum muddat kutishga to‘g’ri keladigan bank amaliyotlarini bir necha soniyada o’tkazish imkonini beruvchi dasturlar, qurilmalar yaratilgan. Hayotimizga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining mana shunday shiddat bilan kirib kelishi jahon xo‘jalik aloqalarining globallashuvini, tovar va xizmatlar, shu jumladan, moliyaviy xizmatlarni yetkazib beruvchilar bozorida raqobatni keskin kuchaytirib yubordi. Bank tizimida zamon talablariga mos holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish va shu orqali ko‘plab bank xizmatlarini avtomatlashtirish ishlari jadallahsgan. Avvalo, moliya bozori deganda, oldi-sotdi obyekti pul yoki pulga tenglashtirilgan qog‘oz bilan bog’liq bo’lgan bozor tushuniladi. Bozorning bu turida moliya mablag’larini ²vaqtincha haq to‘lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan munosabatlar olib boriladi, shuningdek, pul mablag’larini jamg‘arganlardan qarzga oluvchilarga o’tishi ta’milnadi. Ortiqcha mablag’larga ega bo’lgan xo‘jalik subyektlari o’z moliyaviy resurslarini mablag’larga muhtoj subyektlarga taklif qiladi. Moliya bozori banklarda, fond birjasida va auksionlarda o’tkaziladi. Moliyaviy bitimlar xarakteriga qarab, moliya bozorini turkumlashning bir necha usullari mavjud.

Qaytarish tamoyili bo‘yicha moliya bozori 2 ga bo‘linadi :

1. Qarz majburiyatları (iste’molni ko’ndiradigan pul) ;
2. Kapital (mulk) bozori.

² Shoxa’zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog’ozlar. /Darslik.-T.: «Fan va texnologiya», 2012.- 3 b.

Qarz majburiyatlari bozorida pul vaqtincha qarz sifatida bozorga chiqadi va olingan pul shaxsiy iste'mol uchun ishlataladi. Kapital (mulk) bozorida qo'yilgan puldan daromad olish huquqi sotiladi va sotib olinadi. Bu bozorda mablag'lar kapital sifatida ishga solinib, foyda keltiradi.

Kapital bozorini 2 bo'g'inga ajratish mumkin:

1. Ssuda kapitali bozori ;
2. Qimmatli qog'ozlar bozori

Ssuda kapitali bozori — pul shaklidagi kapitalning foiz to'lash sharti bilan qarzga berilishidir. Bu bozorda qisqa muddatli majburiyatlar muomalada bo'ladi. Bular, asosan, davlat va banklarning majburiyatlari hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlarning birlamchi va ikkilamchi bozorlarida aksiya, obligatsiya, veksel va boshqa oldi-sotdi qilinadi³. Xo'jalik hayotining baynalmilallashuvi natijasida jahon Moliya bozori paydo bo'ldi. Afsuski, bugungi kunda dunyo bo'ylab keng tarqalib ulgurgan koronavirus pandemiyasi va uning oqibatida yuzaga kelayotgan global iqtisodiy inqiroz butun jahon iqtisodiyoti arxitekturasini, shu jumladan, moliya bozorlarini yana bir bor sinovdan o'tkazishni boshladi. Bozor tizimi rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, haqiqiy o'rta mulkdorlarning asosiy qismi qimmatli qog'ozlar bozoriga aholining mablag'larini jalb qilish orqali shakllantiriladi. Iqtisodiy inqirozlar sharoitida iqtisodiyotdagi bo'sh mablag'larini moliyaviy instrumentlar yordamida jalb qilish orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirish, shuningdek, pul aylanmasini va milliy valyuta aylanmasini mustahkamlashga erishiladi. Kapital bozorini yoki umumiay aytganda moliya bozorini bank sektori bilan birgalikda rivojlanterish iqtisodiyotning barometri, mamlakatdagi iqtisodiyotning holati va investitsiya muhitining indikatori hisoblanadi. So'nggi yillarda, milliy qimmatli qog'ozlar bozorini institutsional modernizatsiya qilish bo'yicha zarur choralar ko'rilmoxda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlarining yangi tahrirlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya va pay fondlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi sohaning tashkiliy-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish uchun mustahkam zamin yaratdi. Ayni tahlikali davrda moliya tizimining xavfsiz darajada saqlab turilishi kelgusida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri ekanligini inobatga olib, bugungi kunda moliya munosabatlar tizimi samaradorligini xalqaro andozalar asosida oshirish choralariga alohida ahamiyat berilmoqda. Shu kungacha, O'zbekiston Respublikasida moliya bozorini tartibga solish,⁴ uning asosiy

³ Alladustov R.D., Xo'jamurodov A.J., A.N. Xamizaev Moliya bozori va birja ishi. O,,quv qo,,llanma. - T.: «IQTISODIYOT», 2019. - 234 bet.

⁴ Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning Toshkent shahrining 2200 yilligiga bag'ishlangan tantanali majlisdag'i nutqi. «Xalq so'zi» gazetasi, 02.09.2009y.

tarkibiy bo'g'ini hisoblangan qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish va rivojlantirish bo'yicha samarasiz, aytish mumkinki, mantiqiy nuqtai nazardan nomuvofiq tizim yo'lga qo'yilgan edi. Ya'ni qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish va rivojlantirish uchun mas'ul vakolatli davlat organi hisoblangan Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi davlat mulkini boshqarish sohasida vakolatli organ - Davlat raqobat qo'mitasi huzurida tashkil etilgan edi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, moliya bozori har qanday davlatning iqtisodisodiy rivojlanishida tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Ularning barqaror ishlashi va kengayib borishi mamlakatdagi makroiqtisodiy barqarorlikning va moliyaviy globallashuv jarayonlaridagi muvaffiqiyatlari raqobatbardoshlikni hal qiluvchi omili hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida moliya bozorini rivojlantirish borasida bir qator salmoqli ishlar olib borilmoqda va o'ylaymizki bu albatta o'z samarasini beradi. Yaqin kelajakda ushbu ustuvor yo'nalishlarning samarasini kuzatishimiz mumkin bo'ladi. O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamlar islohotlar mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotida asoslangan demokratik jamiyat qurishga qaratilgan bo'lib, ularning asosiy mahsullaridan biri tez sur'atlarda namayon bo'ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Shoxa'zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar. /Darslik.-T.: «Fan va texnologiya», 2012.- 5 b.
2. Shoxa'zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar. /Darslik.-T.: «Fan va texnologiya», 2012.- 3 b.
3. Alladustov R.D., Xo,jamurodov A.J., A.N. Xamizaev Moliya bozori va birja ishi. O,,quv qo,llanma. - T.: «IQTISODIYOT», 2019. - 234 bet.
4. Dilmurod o'g'li, Fayzullayev Abdusamad, and Rahimova Nozimaxon Jahongirovna. "O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA ATROF-MUHITGA TA'SIRI." *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING* 5.1 (2024): 19-23.
5. Vohidjonovich, Boltayev Nodirbek, and Rahimova Nozimaxon Jahongirovna. "RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA KAMBAG'ALLIK MUAMMOSI." *ILM-FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI* 2.1 (2024): 20-21.